

BIOTIBBIYOT TADQIQOT ETIKASI.

G‘aniyev Mirali G‘ayrat o‘gli.TDSI talabasi.

Ilmiy raxbar: Siddiqov N.N

Annotatsiya: Zamonaviy dunyo, texnika va globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan bir davrda axloqiy qadriyatni, odamiylik, insonparvarlik va shu kabi ijobjiy sifatlarni saqlab qolish bugungi dunyoning dolzARB muammolaridan biridir. Inson, tibbiyot, texnikaning rivojlanib borish jarayoni insoniyat oldiga shu doirada hal qilinishi lozim bo‘lgan ziddiyatli axloqiy muammolarni keltirib chiqardi. Ushbu maqolada bu tarixiy jarayon va bioetika paydo bo‘lishining tarixiy omillari, sabablari, muammoli jarayonlarini ko‘rib chiqamiz va insoniy qadriyat hamda axloq har qanday davr uchun ma‘naviy ozuqa ekanligini anglab yetamiz.

Kalit so‘zlar: Axloq, etika, bioetika, globallashuv, "ziyon etkazma", deontologik model, talidamid fojeasi, tibbiy etika, zaxm, transplantalogiya.

Bioetika- biotibbiyot fani va sog‘liqni saqlash amaliyotidagi so‘nggi ilmiy yutuqlar natijasida yuzaga kelgan axlooq va axloqiy muammolarni tushunish, muhokama qilish va hal qilishga qaratilgan fanlararo tadqiqot sohasidir. Bioetika keng qamrovli, sohalararo fan sifatida o‘zida tibbiyot, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mantiq, huquqshunoslik, menejment, dinshunoslik, pedagogika hamda boshqa tibbiy va notibbiy fanlar yutuqlarini jamlaydi, amaliy tibbiyotning axloqiy muammolarini o‘rganadi. Bioetikani paydo bo‘lishi va fan sifatida shaklanishi sabablari va shart-sharoitlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish, jarayonida turli manbalarni o‘rganish, tarixiy va qiyosiy tahlil, analiz, sintez, umumlashtirish kabi usul va uslublaridan samarali foydalanildi. Bioetikaning tarixi uch ming yildan ko‘proq vaqtini o‘z ichiga oladi. Qadimgi Hindistonda shifokorlar miloddan avvalgi 2-ming yillikning o‘rtalaridayoq qasamyod qilganlar. Shifokorlar bu soxani chuqurroq o‘rganish maqsadida turli xil tadqiqolarni amalga oshirganlar. Odamlar va hayvonlar bo‘yicha tibbiy tadqiqotlar tarixi ham uzoq tarixga ega, ammo ma’lum vaqtgacha ularni amalga oshirish bilan bog‘liq axloqiy va huquqiy muammolar bugungi kunda bo‘lgani kabi jamiyat va tadqiqotchilarining diqqatini jalb qilmagan. Shunga qaramay, shuni ta‘kidlash kerakki, tadqiqotchilar ushbu muammolarning mavjudligiga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratdilar va ularning yechimiga yondashuvlarni taklif qildilar. Tibbiy etika - tibbiy xodimlar faoliyatining o‘ziga xosligi va jamiyatdagi o‘rni bilan belgilanadigan axloq me’yordi va tamoyillari majmuasidir. U shuningdek, tibbiy faoliyatni tartibga soluvchi axloq me’yordi va mezonlaridan tashkil topgan kasbiy tibbiy xulq sifatida ham e’tirof etiladi. Shartli ravishda tibbiy etikani quyidagi tarixiy modellarini farqlash mumkin:

- Gippokrat modeli (eramizgacha 460-377yy.). Mazkur modelning asosiy mazmuni "Qasamyod"da bayon etilgan. Ushbu model patemalizmga (lotinchadan pater - ota) asoslangan, asosiy tamoyili - "ziyon yetkazma"



- Paratselbs modeli (1493-1541yy.). Bu model o'rta asrlarda shakllangan bo'lib, uning tamoyillari aynan Paratselbs tomonidan nisbatan aniqroq bayon etilgan. Ushbu modelga ko'ra bemor va vrach munosabatlari o'z mohiyati bo'yicha - vrachning muruvvati natijasidir. Binobarin, modelning asosiy tamoyili ham -a"ezgulik, muruvvat qil"

Deontologik model. "Deontologiya" atamasi (deon. (grech.)burch) ingliz faylasufi I. Bentam (1748-1832 yy.) tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, burch haqidagi ta'limotni anglatadi. Asosiy holatlar uning "Deontologiya yoki axloq haqidagi ta'lim" kitobida bayon etilgan (1831y). Ushbu modelning asosiy tamoyillari - "burchga sodiqlik", "foyda keltirish". Ta'kidlash lozimki, deontologiya axloqiy burch haqidagi ta'limot sifatida etikaning tarkibiy qismini tashkil etadi va vrach etikasini tibbiy faoliyatning u yoki bu vaziyatidagi ma'lum bir ko'rinishi, ya'ni kasbiy axloqning amaldagi namoyishi hisoblanadi.

Bioetika modeli. "Bioetika" atamasi 1970 yilda amerikalik olim V.R.Potter (1911-2001yy.) tomonidan taklif etilgan. Bioetika bo'yicha tashkil etilgan Strasburg simpoziumi (1990 y.) ta'rifiga ko'ra, bioetika - tibbiyot va biologiya fanlari rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan axloqiy, huquqiy, ijtimoiy muammolarni o'rganadigan bilimlar sohasidir. Amaliy etikaning bir qismi sifatida bioetika sohalararo fan bo'lib, asosiy maqsadi tibbiyot va biologiya fanlari yutuqlarini tadbiq etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan insonlar hayoti va sog'lig'ini himoya qilishdi. Bioetika fani asoschisi masalasi biroz munozarali bo'lib, ba'zilar nemis ilohiyotchisi va faylasufi Fritz Yahrni himoya qilishsa (U 1927 yilda o'simliklar va hayvonlarga nisbatan axloq qoidalariga oid maqolasida «Bio-Etik» atamasini ishlatgan). Boshqa mualliflar esa 1969 yili amerikalik onkolog va biokimyogar V.Potter uni muomalaga kiritgan deb hisoblashadi. U 1970 yilda bioetik axloq atamasini maqolasida ishlatgan va bir yildan so'ng "Bioetika: kelajakka ko'pri" nomli kitobini nashr etgan. 1999 yili Kosta-Rikada bioetika masalalariga bag'ishlangan anjumanda V.Potter nutq so'zlar ekan, "Men barchangizdan bioaxloqni mas'uliyat, kompetentlik talab qiluvchi hamda barcha madaniyatlarni o'zida mujassam etgan va gumanizmni targ'ib etayotgan yangi etika ta'limoti sifatida qabul qilishingizni so'rardim", — dedi. Uning fikricha bioetikaning asosiy g'oyasi umuminsoniy qadriyatlarni tibbiy-biologik dalillar bilan uyg'unlikda ko'rib chiqishdan iborat.A. Shveytseming 1924 yilda chop etilgan "Madaniyat va etika" nomli kitobi bioetikaning vujudga kelishida dastlabki bosqich sifatida muhim ahamiyat kasb etgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.A.Botyajova " Osnovi bioetiki" Yaroslav. 2011y. 7-c.
2. Z. M. Muxamedova "Bioetika" T-2006 15-b.
3. Xalqaro bioetika qo'mitasi - International Bioethics Committee [https://uz.wikisko.ru > wiki > Internal..](https://uz.wikisko.ru/w/index.php?title=Internal..&oldid=134000)
4. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi ... [https://daryo.uz > 2021/11/13 > shav...](https://daryo.uz/2021/11/13/shav...)



5. Agzamova Nilyufar Shukhratovna, Mukhamedzhanova Lalikhon Ashuralievna, Kadyrova Dilbar Salikhovna. (2021). Conspirological Theories of Origin Pandemic COVID-19 Ethical Issues in Dealing with the Pandemic. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6250
6. Мухамеджанова, Лалихон Ашуралиевна (2019) «РОЛЬ НРАВСТВЕННОСТИ В ОБЩЕСТВЕННОМ СОЗНАНИИ», Научный вестник Наманганского государственного университета : Вып. 1: Вып. 9 , статья 17.
7. Z.Abduaazimova. Globallashuv jarajnida ekologik axloqni shakllantirishda koncheptual yondashuvning falsafiy xususiyatlari. НамДУ илмий ахборотномаси -2021(12), Б.
8. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҶАМЛАШТИРИШ: Сиддиқов Нурали Нишоналиевич, ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси
НН Сиддиқов - Научно-практическая конференция, 2022
СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА
НН Сиддиқов - Социосфера, 2020

